



**“MUBAYYIN” ASARIDA BOBURNING DINIY- MA’RIFIY
QARASHLARI**

Berkiyeva Marhabo Ravshanbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbeklar nomini jahonga tanitgan ulug‘ allomalardan biridir. U noyob qobiliyatga ega sarkarda va podshoh, ulkan tafakkur qudratiga ega tarixchi, olim va shoir sifatida dunyoni hayratga soldi. Ushbu maqolada Boburning “Mubayyin” asarining diniy-ma’rifiy xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Masnaviy, fiqh, iyhom, Qur’oni karim, “Mubayyin ul-islom.*

Annotation: *Zahiriddin Muhammad Babur is one of the great scholars who made the Uzbek name known to the world. He amazed the world as a commander and king with unique abilities, a historian, scientist and poet with great thinking power. This article analyzes the religious and educational features of Babur’s work “Mubayyin”.*

Keywords: *Masnavi, fiqh, iyham, Quran, “Mubayyin ul-islam”.*

Bobur – shoir, yozuvchi, tarixnavis, teran tafakkur miqyosiga ega olim. U adabiyotimizning Alisher Navoiydan keying eng teran fikrli va sohir tuyg‘ular kuychisi. Uning “Mubayyin”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Aruz” haqida risolalari islom qonunshunosligi she’riyati va til nazariyasi sohalarida munosib hissa qo‘shdi.

“Mubayyin” islom dini asoslarini bayon qilishda o‘ziga xosligi, mazmun ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi. U islomshunoslik va o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zbek tilining go‘zalligi va boyligini aks ettirgan diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boburning islom dini aqidalari va fiqh (shariat qonunchiligi)ga oid “Mubayyin” asari (arab. mubayyin – (yo‘l) ko‘rsatkich; mubayyan – bayon qilingan ma’nolarini bildiradi) jami 2254 baytdan iborat bo‘lib, masnaviy uslubda yozilgan. Bobur o‘g‘illari Humoyun va Kamronga bag‘ishlab yozgan.



Boburning “Mubayyin” asari turli ilmiy manbalarda soliq ishlarini yoki zakot masalalarini tartibga soluvchi asar sifatida e’tirof etiladi. Ayrim manbalarda asarning nomi “Mubayyin al-zakot” ekani qayd qilinadi. Asarning yurtimizdagi ilk nashri ma’rifatparvar noshir Mulla Mir Maxdum ibn Shoh Yunus Toshkandiy tomonidan 1905-yilda Toshkent Porsev litografiyasida toshbosma usulida amalga oshirilgan. Asarning titul varag’ida keltirilgan quyidagi qayd uning nomi aniq tasavvur beradi: “In kitob rofe’ ul-xavos va nofe’ ul-avom, al-musammo bi-“Mubayyin ul-islom”. Ya’ni “Bu kitob xoslarni yuksaltiruvchi, avomni manfaatlantiruvchi bo’lib, u “Mubayyin ul-islom” – “Islomni bayon qiluvchi”, deb nomlangandir. Garchi Mirzo Bobur kitob muqaddimasida Chun bayon etdim anda shar’iyot Ne ajabki, dedim “Mubayyin” ot, – deya, asarning qisqa nomini zikr etgan bo’lsa-da, asarning to’liq nomi XX asrgacha “Mubayyin ul-islom” tarzida yetib kelgan. Asar “Mubayyan” nomi shuhrat qozongan bo’lib, mazmunan islom dinining 5 ustuni iymon, namoz, ro’za, zakot va haj ibodatlarining she’riy shakldagi ifodasidir. Aynan shunga mos ravishda asar “E’tiqodiyya”, “Kitob us-salot”, “Kitob uz-zakot”, “Kitob us-savm”, “Kitob ul-haj” nomli besh qismdan tarkib topgan. **Asarning sakkiz nusxasi mavjud bo’lib, ularning asosida ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bobur Qur’oni karimga qat’iy amal qilgan, har qadamda Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) sunnatlarini dasturulamal sifatida qabul qilgan shariatpanoh podshoh edi.** Sodda qilib aytadigan bo’lsak, “Mubayyan” fiqh masalalarning turkiy nazmdagi ixcham ifodasi.

Bobur “Mubayyin”da fiqhiy masalalarni ancha batafsil, keng ko’lamda tasvirlaydi. Asarda Bobur eng muhim islomiy ilmlarni saralab, o’zining din olimi, faqih ekanini ham ko’rsatgan. Sho’ro davrida “Mubayyin” asari xalqdan yashirildi, faqat istiqlol yillari izohlar bilan nashr etildi. Asarning yaratilish sababi borasidagi quyidagi baytlar uning mohiyati to’g’risida muayyan tasavvur beradi:

Bilgasen, ey xujasta farzand,

Jigarim birla jonima payvand.

Masalalarki, ul zarur erdi,



Bilmasang dininga qusur erdi.
Yetti ko'nglung'akim, yig'ishtursam,
Nazm tartibida sig'ishtursam.
To ani zabt qilg'asen oson,
Ul masoyilni bilgasen yakson.
Tonglaliq kundakim, hisob o'lg'ay,
Menga ajru senga savob o'lg'ay.
Dinu donishda har kun afzun bo'l,
Davlatu baxt ila Humoyun bo'l.

Matnning oxirgi misrasidagi iyyom so'z o'yini(humoyun, Humoyun)da ism keltirilgan bo'lsa, demak, "Mubayyin" valiahd farzandi Humoyun mirzoga bag'ishlangan bo'lib chiqadi. Agar undan keyingi baytdagi so'z o'yini(Komron, komron)da atoqli ot inobatga olinsa, balki bu risola o'g'li Komron mirzoga atab yozilgandir, deb taxmin qilish ham mumkin:

Komron bo'l jahonda, davlat ko'r,
Yuz tuman obro'yu izzat ko'r.

Bobur Mirzo "Mubayyin" xotimasida: "Ey Bobur, bu kitob tasnifida agarchi ranj chekkan bo'lsam-da, qo'linga shunday bir ganj-xazina kirdi, har qanday ganjni xarj etish bilan kamayadi, ammo bu ma'naviy ganj – bu ilm xazinasini xarj etgan sari tobora ortib boradi", deydi:

Bobur, emdi, agarchi chekdim ranj,
Keldi ilgimga ushbu yanglig' ganj.
Ganj nuqsong'a xarjdin tortar,
Xarj qilg'on soyi bu ganj ortar.

Bobur Mirzo kitobni yakunlar ekan, bu ilmlarga amal qilishga o'zi va kitobxon uchun ham Allohdan taviq – yordam so'raydi. So'ng kitob nomi haqida so'zlab: "G'ayrat, shijoat ko'rsatib, jiddu jahd qilib tamomlagan bu kitobimda shariat masalalarini ochiq bayon etganim uchun, uni "Mubayyin" (Ochiq bayon etuvchi) deb nomlagan bo'lsam, ne ajab!" deydi.



Bobur Mirzo asar soʻngida aytadi:

Ulamodin budur mening tilagim,

Qoʻldagʻ aylar bu ish aro bilagim.

To bu ishtin savob topqaylar,

Afv zaylini manga yopqaylar.

Bu ifodadan ulugʻ shoh va sarkarda, qomusiy alloma Bobur Mirzoning naqadar kamtarin, goʻzal xulqli orif va halim zot boʻlgani ham anglashiladi.

Boburning boshqa shohlardan farqli jihatlarini toʻgʻri baholagan Javohar Neru : “Saxovati va mardligi, isteʼdodi, ilm-fan, sanʼatga muhabbati, ularga mashgʻulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi”,-deb eʼtirof etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nuriddinov Shahobiddin. Bobur ijodining maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati xususida ayrim qaydlar. “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosini adabiy-lisoniy oʻrganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjumanini.
2. Musayeva Madina Axmad qizi. “Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi.” International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies. 25-27.
3. Raximov Faxriddin. “Bobur-murakkab shaxsiyatli shaxs.” NEW MODERN RESEARCHERS: MODERN PROPOSALS AND SOLUTIONS. International online conference. 2025-yil 25-iyun: 39-41.